



BOBUR ILMIY MEROSINING BUGUNGI KUN ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi "Tergov faoliyati" yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: karimjonsalimov50@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14945934>

ARTICLE INFO

Received: 17th February 2025

Accepted: 18th February 2025

Published: 28th February 2025

KEYWORDS

Shoh va shoir, temuriy shahzoda, Bobur, ilmiy meros, dunyoqarash, "Boburnoma" asari, sharq madaniyati, badiiy so'z sana'ati, falsafiy mazmun, adabiy-estetik qarashlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada shoh va shoir, harbiy siyosatchi Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bobur merosi ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirib, yanada yaxlit, osoyishta va barqaror kelajakni ta'minlash uchun qimmatli fikrlarni taqdim etadi.

XVI asrning yetuk namoyondalaridan biri, ilm-fan va madaniyat homiysi, olimlar do'sti, ma'rifat va san'at shaydosi, ulug' bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tarix zarvaraqlarida o'chmas izi bor. Bobur – buyuk shoh, siyosiy arbob, iste'dodli shoir va mohir sarkarda bo'lishi bilan birga, chuqur ilmiy tafakkur egasi ham edi. Uning boy ilmiy merosi tarix, adabiyot, tilshunoslik, botanika, geografiya va harbiy san'at kabi ko'plab fan sohalariga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Boburnoma" asari faqat tarixiy manba bo'lib qolmay, balki ilmiy jihatdan ham bebaho tadqiqot obyekti sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti sharoitida Bobur ilmiy merosining o'rganilishi nafaqat o'tmish voqealarini yoritish, balki xalqimiz ma'naviy merosini chuqur anglash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning o'z zamonasiga xos ilmiy dunyoqarashi, tabiatshunoslikka bo'lgan e'tibori, tarixiy voqealarni haqqoniy bayon etishdagi aniqligi bugungi tadqiqotchilar uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur avlodni savodli va o'qimishli qilish maqsadida o'zining benazir ishlari bilan o'chmas iz qoldirgan betakror siyodir. Millatimizning ma'naviy olamini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan buyuk mutafakkirdir. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur umumbashariyat madaniyati xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlari bilan vatanparvar insonni yaratib, xalqimizga noyob meros qoldirib ketdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go'zal insoniy fazilatlarini bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning rang-barang ijodi barcha siyosat rayosatlaridan ustun kelib, vaqt atalmish oliy hakamni ham o'z izmiga bo'sundirganligi, dunyodagi eng oliy mo'jiza – So'z qudrati va uning go'zal o'zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo'lmas haqiqatlardan hisoblanadi. Shu bois, ma'naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Zahiriddin Muhammad Boburning o'lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko'proq bahramand bo'lishga harakat qiladi. Bobur ijodidagi: "Davlatqa etib mehnat elin

unutma”, degan purhikmat satrlarining o’ziniyoq inson qalbiga naqsh etib qo’ysa, aslo ziyon qilmaydi. Mana shunday ulug’ yo’lni mutafakkir bobolarimiz o’z hayot yo’llari hamda yaratgan durdonalari orqali jasorat bilan bosib o’ttilar. Bobur ijodi misolida o’zbek adabiyoti tarixining muhim qismi bo’lgan temuriy shahzodalarning toju-taxt uchun kurashgan davri adabiyotida odob-axloq, vatanparvarlik tarbiyasining muhim jihatlari yoritilgan. Holbuki, Vatan timsoli va uning ravnaqiga xizmat qilish, shu asosda barkamol shaxsni tarbiyalash o’sha davrda kamdan-kam yoritilgan, lekin hazrati Bobur ijodida kun tartibiga keskin qo’yilgan edi. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining bosh g’oyasi ham vatanga, millat ravnaqiga o’z jonini tikib bo’lsa-da, xizmat qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g’oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg’a suradi. Uning ijodida, xususan, she’riyatida ona yurtni chin dildan qo’msash, uning tuprog’iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yoru diyor sog’inchi, ona yurtidan ayriliqdagi bir daqiqasi ham tatimaganini katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi:

Tole’ yo’qi jonimg’a balolig’ bo’ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig’ bo’ldi.

O’z yurtni qo’yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, bu ne yuz qarolig’ bo’ldi?!

Bobur O’rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o’ziga xos o’rin egallagan adib, shoir, olim bo’lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo’lsa, “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g’azal va ruboiylari turkiy she’riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi islom qonunshunosligi, harb san’ati, nafis san’at, she’riyat va til nazariyasi sohalari rivojiga munosib hissa bo’lib qo’shildi. Javoharlar’l Neru o’zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida: **“Bobur dilbar shaxs edi. Uyg’onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo’lib, san’atni, adabiyotni, go’zallikni sevardi”**, deb yozgan. “Boburnoma” o’zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko’plab ma’lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo’lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro’y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg’onistonda ro’y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o’z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o’simlik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma’lumotlarni o’zida mujassam etgan qomusiy asar bo’lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Muxtasar aytganda, “Boburnoma” o’quvchiga Markaziy Osiyo, Afg’oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o’sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi.

Bobur qayerga qadam qo’ymasini o’sha joyda xayrli va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Hindistonda ham, xuddi Afg’onistonda bo’lganidek, ko’plab ijtimoiy-xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko’rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o’zaro ichki nizo, qirg’inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Nochor, muhtoj aholiga alohida e’tibor qaratdi. Bunyodkorlik ishlariga boshchilik qildi. Mirzo Bobur ijodkorlar, olimlar va tolibi ilmlarning homiysi bo’lish bilan birga, o’zi ham ijod qilib, qalam tebratardi. Boburning o’z guvohligiga ko’ra, shoir sifatida

ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan. “Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim”, deb yozadi o‘zi asarlaridan birida. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o‘rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to‘plana boshlashi ham shu yillarga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o‘rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg‘in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko‘p vaqti jangu jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san‘at va ijod ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan. Adabiyot va tarix, musiqa va san‘atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta‘limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san‘at ahliga bunday mehri munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Bobur she‘riyatida ko‘pchilik mutafakkirlar asarlariga xos bo‘lgan jihat yaqqol namoyon etilgan – insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko‘tarib, unga ulkan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni yoqlaydi. Buning ziddi bo‘lgan sifatlarni qoralaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboiylarida insonning ma‘naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi. Bobur ko‘z o‘ngida yuz berayotgan voqea va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O‘zini qiynagan his-tuyg‘ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik va adolat, haqiqat va go‘zallik tamoyillariga xizmat qilishga yo‘naltira olgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ingliz tarixchisi Eduard Xolden unga **“Bobur fe‘l-saviyasiga ko‘ra Sezarga qaraganda suyuqliroq bo‘lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan”**, deb ta‘rif bergan. Mirzo Muhammad Haydar esa “Tarixi Rashidiy” asarida bunday yozadi: **“U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo‘lgan bir podshoh edi. Barcha fazilatleri orasida shijoat va muruvvati ustunroq turardi. Turkiy she‘rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”**. Ta‘bir joiz bo‘lsa, jahon tarixnavislik ilmida “Eng ko‘p va xo‘p” o‘rganilgan vatandoshimiz ham Boburdir. Ayni kunga qadar o‘zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o‘nlab chet ellik mualliflarning nomlari tanish. Jumladan, 1995-yili “Cho‘lpon” nashriyotida ingliz tarixchisi U.Erskinning “Bobur Hindistonda” asari, hind tarixchisi L.P.Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan “Boburiylar saltanati” asari, amerikalik olim S. Berkning “Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi” (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, “Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi” nomi bilan kirgan saltanatning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo‘lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo‘li, bolalik, o‘spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san‘atga munosabati singari masalalar tasvirlangan. egallaydi.

Bobur o‘z lirik she‘rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.

Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ har giz,

Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Bobur lirik she'rlari va tarixiy "Boburnoma"sidan tashqari islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan "Mubayyin" nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. "Xatti Boburiy" deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan o'zbek tili nuqtai nazaridan bir muncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida "Xatti Boburiy" alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan "Mufassal" nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Xulosa qilib aytganimizda, yurtdoshimiz Bobur ma'naviyati yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi timsoli sifatida Sharq madaniyatining o'lmas obidalaridan biriga aylanganligi, u Hindistonning tengi yo'q nodir namunalaridan biri bo'lishi bilan birga, o'zbek xalqining yuksak darajadagi faxri hamdir. Bir so'z bilan aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur yaratib ketgan ma'naviy boyliklar va erishilgan yutuqlari keyingi avlodlarga to'liq yetib borishi uchun va ular o'zlaridan oldin egallagan marralarni qo'ldan bermay, taraqqiyotni tadrijiy ravishda davom ettirishlari uchun tarix, til va adabiyot birgalikda oldinga davrlar tajribasini keyingi davr kishilariga to'liq yetkazib berishi kerak. Faqat mana shunday bo'lgandagina tarixiy xotira kelajakka samarali xizmat qiladi. Ajdodlarning barcha yaxshi tajribasini chuqur bilgan, qalbiga joylagan va ongiga singdirgan yangi avlodlar o'z yo'llarida uchragan har xil to'siqlarni yengib o'ta oladilar. Albatta, buyuk vatandoshimiz Boburning hayoti va ibratli ishlari o'z davrida va keyinchalik shogirdlari, izdoshlari tomonidan atroflicha o'rganildi va bugungi kunda ham uning ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqish, izlanishlar davom etmoqda. Buyuk allomaning yorqin hayoti va ko'p qirrali faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish Yangi O'zbekistonimiz kelajagi bo'lgan ma'naviy barkamol, vatanparvar insonlarni tarbiyalashdek muhim va oliyjanob vazifalarga xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: S. Hasanov. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Nasirov A. Expression of spiritual experiences in art // International Journal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020.
3. Nasirov A.N. Badiiylik va hayotiy haqiqat. – Turkiya, Istanbul, "Kesit" nashriyoti, 2019.
4. Джаврлал Неру. Открытии Индии. – Москва, Политздат, 1989.
5. Mirzo Muhammad Haydar. :Tarixi Rashidiy" – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1996.